

RAJAPOV Pirnazar Sardor o'g'li
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Tarix (Islom sivilizatsiyasi) yo'nalishi II kurs
magistranti
E-mail: rajapovpirnazar@gmail.com

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA FAOLIYAT YURITGAN TURK MUTAKALLIMLARI QARASHLARI

ВЗГЛЯДЫ ТУРЕЦКИХ МУТАКАЛЛИМОВ, ФУНКЦИОНИРОВАВШИХ В КОНЦЕ XIX-НАЧАЛЕ XX ВВ.

VIEWS OF TURKISH SCHOLARS WORKING AT THE END OF THE 19TH CENTURY AND THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Annotatsiya. Maqolada “Yangi kalom ilmi” harakati namoyandalarining qarashlari ochib berilgan. Bu harakat vakillari e’tiqodiy masalalarni aqliy dalillar bilan isbotlash maqsadida foydalaniladigan ilmiy ma’lumotlar davrlar o’tishi bilan o’zgarishi mumkin degan to’xtamga kelib, fan-texnika taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan yangi ilmiy tushunchalar vositasida kalom mavzularini yoritib berishgan. Ular yangi paydo bo’lgan falsafiy oqimlar va qarashlar xurujlarini qaytaruvchi hamda zamondosh musulmonlarning ongidagi shubhali va jumboqli savollariga yechim topadigan asarlar yozishga harakat qilishgan.

Kalit so’zlar: “Yangi kalom ilmi”, Abdullatif Harputiy, Ahmad Hilmiy, Ismoil Haqqi, Sharafiddin Yaltkaya.

Аннотация. В статье раскрываются взгляды представителей движения «Новая наука калам». Представители этого движения пришли к выводу, что научная информация, используемая для доказательства богословских вопросов с помощью ментальных доказательств, может меняться с течением времени, и освещали вопросы калама с помощью новых научных понятий, возникших в результате научно-технический прогресс. Они пытались писать труды, дающие отпор нападкам и взглядам, новых философских течений и находящие

решения сомнительных и проблемных вопросов в сознании современных мусульман.

Ключевые слова: «Новая наука калам», Абдуллатиф Харпутий, Ахмад Хилми, Исмаил Хакки, Шарафиддин Ялткая.

Annotation. The article reveals the views of representatives of the “New Kalam Science” movement. Representatives of this movement came to the conclusion that the scientific information used to prove religious issues with intellectual evidence could change over time, and shed light on the themes of the word through new scientific concepts that have emerged as a result of scientific and technological advances. They sought to repel the onslaught of emerging philosophical currents and views and to address the dubious and enigmatic questions of the minds of contemporary Muslims.

Key words: “New Kelam”, Abdullatif Harputiy, Ahmad Hilmi, Ismail Haqqi, Sharafiddin Yaltkaya.

KIRISH

Ahli sunna val jamoa mazhabining yirik imomlaridan biri sifatida Moturidiylik ta’limoti dinda mo’tadillik va o’rtachalikni tutish kabi sifatleri bilan boshqalaridan ajralib turadi. Jamiyat taraqqiy etgani sari, insonlar haqiqatga intilib, sof e’tiqodga erishish yo’llarini qidiradilar. Shu jumladan, bugungi kunda Imom Moturidiy ilmiy merosini o’rganish, tadqiq etish va uni ommaga yoyish sa’y-harakatlari nafaqat yurtimiz, balki butun dunyo musulmon olimlarining qiziqishlarini orttirib kelmoqda. Bunga misol o’laroq, Imomning deyarli barcha asarlari chet el olimlari tomonidan turli tillarga tarjima qilingani, musulmonlarning zarur mutolaa manbasiga aylangani va ko’plab ilmiy-tadqiqotlar mavzusi sifatida tanlanayotganini keltirish mumkin. Xususan, Kembrij universiteti kutubxonasida “Kitob at-Tavhid” asarining yagona qo’lyozmasi saqlanadi. Uning faksimil nusxasi esa 2019-yilda Belorussiyada islomshunos olimlar tashabbusi bilan nashr qilingan. Bundan tashqari, Avstriya, Avstraliya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Malayziya, Indoneziya va Turkiya kabi dunyoning turli davlatlarida Moturidiy ilmiy merosini o’rganishga alohida qiziqish bildirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar asosan, turk, ingliz va nemis tillarida olib borilayotganligi, aynan shu ilmiy ishlarning qamrovi va o’ziga xosligini o’rganishni talab etadi.

Moturidiy ta’limotining yurtimizdagi o’rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. So’nggi yillarda diyorimizda jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa

qo'shgan allomalarning hayoti va boy ilmiy merosini o'rganish va ularning ilmiy-ma'naviy merosini aholiga yetkazish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kalom ilmi sultoni Imom Moturidiyning hayot va ilm yo'li ham hukumatimiz tomonidan alohida e'tirof etilmoqda. 2020-yilning 11-avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori natijasi o'laroq O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi qoshida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.

Xorijiy tadqiqotlar bilan tanishish jarayonida Imom Moturidiyning hayoti, ijodi va ilmiy merosiga oid bir qator kitoblarning turk tilida chop etilganini ko'rish mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda Moturidiylik ta'limotini o'rganish va tadqiq etish bo'yicha turk olimlari tomonidan qator yirik ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

ASOSIY QISM

XIX asr oxirlarida islom dunyosi Yevropa sivilizatsiyasiga qay darajada yondashishi kerakligi, musulmonlarning jahon siyosatida tutgan o'rni va islom jamiyatining kelajagi haqidagi bahslar kun tartibidagi bahsli mavzuga aylangach, masalaning ilmiy jihatiga e'tibor berish zarurati yuzaga keldi. Islom ilmlarining mavjud holati va bu ilmlar yordamida jamiyatni qayta yo'naltirish uchun nimalar qilinishi lozimligi muhokama qilina boshlandi. "Islom ilmlari u davrdagi mazmuni va usullari bo'yicha bugungi kundagi insonlar ehtiyojiga javob bermaydi", mazmunidagi g'oyaviy qarashlar islom ilmlarini yangilash fikrini keltirib chiqardi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar ilmiy jabhalarda jadal rivojlandi. Bu harakat ilk bor tafsir ilmida kuzatildi. Ba'zi tafsirlarni yangi uslubda yozishga urinishlar ham bo'ldi. Fiqhda "ijtihad eshigi yopiq" degan fikr tanqid qilinib, "mazhabparastlik"ning zararlari, turli konfessiya vakillarining ta'limotlarini qabul qilish, fiqhiy hukmlarni davrning ehtiyojlariga muvofiqlashtirish bo'yicha yangi g'oyalar muhokama qilina boshlandi. Keyinchalik ijtihad va tarjih o'rin olgan fiqhiy asarlar yozilib, yangi metodik tadqiqotlar olib borildi. Turli qiyinchiliklarga qaramay, Usmoniylar sultonligida qonuniylashtirish harakati boshlanib, "Mecelle" (Jurnal) va "Oila huquqi to'g'risida"gi

kabi islom adabiyoti namunalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. [14]

Yangilikka bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq sa'y-harakatlar, asosan, kalom sohasida namoyon bo'ldi. Kalomga urg'u berilishining asosiy sababi islom dini nuqtai nazaridan muhim hisoblangan bu fan nafaqat yangi paydo bo'lgan g'oyalar oqimi, shuningdek, o'sha davrgacha asos qilib olingan ilmiy-falsafiy ma'lumotlari sababli zamondan orqada qolgani to'g'risidagi fikrlardir. Falsafa o'zining yangi mazmuni bilan diniy e'tiqod va qadriyatlarga tahdid qila boshlashi va dinni chetlab o'tuvchi oqimlarning borgan sayin ziyolilarga ta'siri o'sha davr mutakallimlarini turli izlanishlar qilishga boshlagan, jamiyatning mavjud holati qarshisida zamon talablariga monand islom e'tiqodini himoya qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan kalom ilmiga dolzarb vazifalar yuklanib, yangi usulda yozilgan asarlarga ehtiyoj borligi ta'kidlandi. Bu jarayonlar Usmoniylar sultonligi va islom olamida "Yangi kalom ilmi" harakati nomli yo'nalishni yuzaga keltirdi. [14]

"Yangi kalom ilmi" harakatining orqa foni uzun tarixiy jarayonni qamrab olsa-da, bu harakatning tez shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit yuzaga keltirgan muhit Usmoniylar sultonligining so'nggi davrlariga to'g'ri keladi. Usmoniylar davlatida innovatsion tafakkurni namoyon qilgan sabablar sifatida quyidagi omillarni sanashimiz mumkin:

Usmonli jamiyati tanazzul jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda G'arb dunyosining taraqqiy etishi;

Rivojlanayotgan G'arb olamining yangi madaniyat va falsafasining Usmonli jamiyatida faollashuvi;

Islom olamida matbaa, nashriyot va jurnalistik faoliyatdan foydalanishning ortishi;

Usmoniylar sultonligida liberal tendensiyalarning o'sishi;

Arab jamiyatlarida salafi-solihlar davridagi islomning asl xarakteri va mohiyatiga qaytishni maqsad qilgan vahhobiylar harakatining vujudga kelishi va o'zgacha aks etishi;

G'arb davlatlarining Usmoniylar sultonligini parchalab tashlab, turli hududlarini mustamlakaga aylantirishlari natijasida liberal harakatlarning yuzaga kelishi [6: 17-59].

Bu oqim yetakchilari o'z innovatsion harakatlari modelini ishlab chiqish va bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borishga tashviq qilish maqsadida

yangicha ruhda kalomga oid asarlar yozishgan. Bular orasida izmirlik Ismoil Haqqiyning “Yangi kalom ilmi”, Muhammad Abduhning “Risolat at-tavhid”, Shibliy No‘moniyning “al-Kalom”, Abdullatif Harputiyning “Tanqihul-kalom”, Filibelik Ahmad Hilmiyning “Islom asosi: haqiqi islomiyaga asoslangan yangi aqoid ilmi”, Husayn Jisrning “al-Husnul-hamidiya” nomli asarlarini keltirish mumkin.

Shuningdek, Ali Suaviy (1839-1878), Sirri Giridiy (1844-1895), shayxulislom Muso Kozim afandi (1858-1920), Ko‘nyolik Mehmet Vahbiy afandi (1862-1949), Umar Farid Qam (1864-1944), Arabqirlik Husayn Avniy afandi (1864-1954), Mehmet Aqif Ersoy (1873-1936), Mehmet Sharafiddin Yaltkaya (1880-1947), Umar Nasuhi Bilmenlar (1882-1971) ham bu harakatning Turkiyadagi tipik namoyandalari hisoblanadi [9: 9-38].

“Yangi kalom ilmi” harakatining ilk vakillaridan biri Abdullatif Harputiydir (1842-1916). Harputiy “Islom ilmlaridan biri bo‘lgan kalom G‘arbda rivojlangan ilmiy-falsafiy oqimlar qarshisida o‘zi asos qilib olgan klassik ilmiy-falsafiy ma‘lumotlari jihatidan zamondan ancha orqadan qolgan” mazmunidagi fikrlarni qo‘llab-quvvatlab, kalomga doir asarlarning qayta yozib chiqilishini ilgari surgan. Uning fikricha, yangi paydo bo‘lgan falsafiy oqimlar va qarashlarga qarshi kurashish uchun “Uchinchi kalom ilmi davri”ga ehtiyoj yuzaga kelgan. Muallif “Tanqihul-kalom” asarining so‘z yuritilayotgan davrda yangi uslubda asarlar yozishda namuna bo‘ladigan tadqiqot ekanini ta‘kidlab, bu yo‘lda kelajak avlodning olg‘a qadamlar tashlashiga ishonch bildirgan [2: 5-6].

“Tanqihul-kalom”ni tahlil qilish natijasida muallif o‘zining diqqat-e‘tiborini islom dinining obektiv fanga zid emasligini yoritib berishga qaratgani anglashiladi. Shu maqsadda Harputiy tabiiy fanlarda erishilgan yutuqlarni kuzatib borib, bu masalaga taalluqli oyatlarni yangicha qarash bilan izohlashga harakat qilgan. Lekin, sharhlarda bo‘rttirilgan talqinlar va g‘aybiy haqiqatlar tasvirlangan o‘rinlarga ko‘zimiz tushmaydi.

Kalom ilmida e‘tiqodiy masalalarni aqliy dalillar bilan isbotlash maqsadida foydalaniladigan ilmiy ma‘lumotlar davrlar o‘tishi bilan o‘zgarishini aniqlagan Harputiy ilohiyot va nubuvvat mavzularini ayni davrning ilmiy tushunchalari bilan isbotlash maqsadida oldingi davr mutakallimlari foydalanmagan ma‘lumotlarni qo‘llagan.

Masalan: issiqlik, yorug‘lik, modda, kuchlanish va elektr kabi fizik hodisalar bilan bir qatorda havo qatlamlari, oy, quyosh, yer sayyorasi xususiyatlari singari astronomik ma‘lumotlar va ba‘zi kimyoviy reaksiyalar, shuningdek, insonning biologik va psixologik jihatlari haqida to‘xtalib o‘tgan.

“Tanqihul-kalom fi aqoidi ahlil-islom” asari Harputiyning Dorulfunun va Madrasatul-voizinda kalom muallimligi davrida yozgan nodir asaridir. Muallifning yangi metodologiya va asar yozish uslubini ishlab chiqish uchun Arab tilida bitilgan bu asari muqaddima, uch bo‘lim va xotimadan iborat. Harputiy asar muqaddimasida Dorulfununda kalomdan dars bera boshlagach qo‘llanma sifatida foydalanish uchun klassik ruhda bitilgan manba izlaganini, lekin davr muammolariga javob bera oladigan birorta manba topa olmasligiga ishonch hosil qilgach, bu asarni yozishiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlab o‘tgan. Uning fikricha, faqat o‘z davrlaridagi bid‘at ahlilari va qadimgi Yunon falsafasiga asoslangan aqidaviy ta‘limotlarga raddiya berish maqsadida yozilgan klassik asarlar yangi bid‘atlarga, pozitivizm kabi zamonaviy falsafiy oqimlarga yetarli darajada javob qaytara olmaydi. Asar muqaddimasi kalom ilmi ta‘rifi, uning predmeti, maqsadi kabi mavzularga ajratilgan, asosiy qism esa klassik kalom kitoblaridagidek ilohiyot, nubuvvat va sam‘iyot kabi mavzularni qamrab olgan. Asar imomat mavzusi bilan yakunlangan.

Ilk marotaba asar 1327/1910-yil Istanbulda sahifaning yuqori qismida matn, quyi qismida Turkcha tarjimasi, undan quyiyoqda esa ayrim Turkcha izohlar o‘rin olgan shaklda nashr etilgan. Lekin 1913/1330-yilgi ikkinchi nashrda sahifaning quyi qismidagi Turkcha tarjima olib tashlanib, uning o‘rniga Turkcha izohlar bilan boyitilgan. “Tanqihul-kalom”ning 3/4 ini ana shunday izohlar tashkil etadi. 1987-yil 23-26-mart kunlari Elâzığ shahrida Frot universiteti tomonidan tashkil qilingan “Turk-islom tarixi, sivilizatsiyasi va madaniyatida Frot daryosining tutgan o‘rni” nomli simpoziumida E.Ruhi Fıĭlalı o‘zining maqolasi orqali asarni taqdimot qilib berdi. Fikret Qahramon magistrlik dissertatsiyasi ishida asarni Turkchaga tarjima qildi. Shuningdek, Harputiyning ba‘zi kalomga oid qarashlari ham tadqiq qilinib, 1990-yil Qaysariya shahridagi Erjies universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti nashriyotida “Abdullatif Harputiy va Tanqihul-kalom fi aqoidi ahlil-islom tarjimasi” nomi ostida chop etildi [15].

Harputiy dinning, xususan, islomning taraqqiyotga g'ov bo'lishi haqidagi da'volarni tuhmat deya baholadi. Majburiylik tushunchasi islomning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat tushunchasiga muvofiq kelmasligini ta'kidlaydi. Harputiy bu sa'y-harakatlari va yozgan asarlari bilan tez orada kalom ilmini qaytadan shakllantirib, funksional holatga keltirish tarafdorlarining ilk vakillaridan biri bo'lishga loyiq edi [15].

Usmoniylar sultonligi II Konstitutsiya davrining ko'zga ko'ringan ziyolilaridan biri bo'lgan Shohbandarzoda Ahmad Hilmiy (1865-1914) siyosatdan tashqari kalom, falsafa, tasavvuf va tarix yo'nalishlarida faoliyat olib borgan. Asarlarida G'arb madaniyatiga taqlid qilishni domiy ravishda tanqid qilgan. Ayniqsa, Tanzimot (qayta qurish) farmonidan so'ng avj olgan zamonaviylashtirish harakatining an'anaviy usmonli-islom madaniyati va muassasalari bilan qanday uyg'unlashishi kerakligi to'g'risida fikr yuritdi. XIX asrning hukmron falsafasi bo'lgan materializmni rad etdi, islom va g'arb falsafasi o'rtasida murosaga kelish yo'llarini qidirdi. Lyudovik Byuxnerning "Materiya va kuch" asarini tarjima qilgan Bahâ Tevfikni va bu asarni o'qishga targ'ib qiluvchi Jalol Nuriyni og'ir so'zlar bilan tanqid qilgan. Metod sifatida eklektizmni afzal ko'rgan. Tasavvufga, ayniqsa, vahdatul-vujud tushunchasiga alohida ahamiyat bergan. Asosan, Shimoliy Afrikadagi tasavvufiy madaniyatning Usmoniylar sultonligida tarqalishi yo'lida sa'y-harakat qilgan [16].

Ahmad Hilmiy "Allohni inkor qilish mumkinmi?" asarida islom jamiyatining faqat taqlid qilish bilan ilgarilay olmasligini ifoda qilib, mavjud vaziyatning sabablarini aniqlash va mazkur ijtimoiy holatning asosiy xususiyatlari nimadan iborat ekanligini o'rganish zarurligiga urg'u bergan. U yangilanishga ehtiyoj borligini bildirib, oldindan mavjud bo'lgan fikrlarga tanqidiy yondashib, ilmiy ma'lumotlar va ehtiyojlarni hisobga olgan holda modernizatsiya qilish kerakligini ta'kidlagan.

Asarda Hilmiy kalom ilmida mavjud davr falsafiy oqimlariga diqqat qaratish zaruriyat ekanligini o'zining ilmiy farazlari asosida izohlagan. Xususan, din xizmatchilari materialistik tushunchalarni chuqur singdirib olgan yosh yigitni bahs-munozaralarda noto'g'ri fikridan qaytarishi amrimahol ekanini ta'kidlagan. Ya'ni bu yigitga oyat va hadislar bilan javob qaytarmaslik kerakligi

fikrini ilgari surgan. Bu holatda bahsga mantiqiy va falsafiy nuqtai-nazardan yondashib, kalom ilmiga murojaat qilish lozimligini aytgan. Hilmiy ta'kidlagan yana bir jihat esa tanqidiy fikrlashning ahamiyati va xususan, an'analarga tanqidiy ruhda qarashdir.

Ahmad Hilmiy aqlan Allohni inkor qilish mumkin emas, deb hisoblaydi. Materialistik va pozitivizm ruhidagi falsafani ma'qullovchi ziyolilar bu oqimlar qarashlarini qabul qilishlari uchun ulardan yaratuvchini inkor qilishlari talab etilmaydi. Hilmiy Allohning mavjudligini qabul qilishga diniy nuqtai-nazardan tashqari falsafiy e'tirof sifatida baho bergan. Uning ta'kidlashicha, insonning fan sohasida musbat usulni qabul qilishi falsafani inkor etishni da'vo qilib, buni isbotlashning iloji yo'q degan taxminga asoslanadi. Hilmiy bu fikrini Avgust Kont orqali isbotlagan. Insonning e'tiqodga bo'lgan ehtiyoji fitratini Kontning yaxshi din, insoniylik dini nomli sharhlaridan bilib olish mumkin. [3:35]

Turkiyada kalom ilmi yangilanishi harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalardan biri Izmirlik Ismoil Haqqiydir (1869-1946) [17].

U islom dinining aqidaviy asoslarini G'arbda rivojlangan zamonaviy tafakkur mezonlari asosida qayta ko'zdan kechirilishi kerakligini ilgari surgan edi. Shuning uchun islomni zamonaviy ilmlar va yangi muassasalar bilan integratsiya qilishni maqsad qilgandi [8:276].

Ismoil Haqqiyning qarashlariga ko'ra, bugungi kun falsafasi va uning mavzulari o'zgarib borayotgani sababli islom dushmanlariga qarshi islom aqidasi himoya qilish uchun kalom ilmi qamrab olgan mavzular ham qayta ko'zdan kechirilishi kerak. Davrning ehtiyojlariga uyg'un keluvchi kalom ilmiga ehtiyoj bor. Roziy davrida Boqilloniylar zamonidagi kalom kifoya bo'lmaganidek, bu asrda ham Roziy davri kalomi kifoya qilmaydigan darajada ko'rinmoqda. Kalom ilmi falsafa bilan uyg'unlashishi, agar kerak bo'lsa, bugungi kun falsafasi bo'lishi kerak. Eski yunon falsafasi o'rniga bugungi kun ingliz, fransuz va nemis falsafalari raqib sifatida qabul qilinishi kerak [5:13].

Ismoil Haqqiyning fikricha, kalom ilmi pozitivizm qonunlariga muxolif bo'lmagan, islom aqidasi qarshi yuzaga kelgan va musulmonlarning e'tiqodlarini nishonga olgan hozirgi davr shubhalariga fanning qonun va qoidalari bilan barham bera oladi. Ya'ni, kalom ilmi

bu vazifani bajarishi uchun yangilanishi kerakligini ilgari surgandi.

Izmirli kalom bilan bog'liq masalalarga ham zamonaviy tafakkur ham islom tafakkuri nuqta'i nazari bilan boqqan edi. Butun o'rta asr muammolarini yangi falsafa vositasida ko'rsatishga intilgan. U Allohning borligini isbotlash uchun ilgari surilgan dalillarni G'arb falsafasining dalillari bilan qiyoslagan. Shu tarzda kalom ilmining yangi metodini ishlab chiqqandi [13:424].

Ana shunday tushunchalarni qamrab olgan "Yangi kalom ilmi" asari o'zgacha uslubda yozilgandir. Izmirli ilk davrdagi kalom ilmining aksariyat mavzularini asarlarida keltirmagan. Buning o'rniga so'nggi asrdagi falsafiy oqimlarning qarashlariga va asos qilib olgan dalillariga murojaat qilib, kalomga o'zgacha tus bergan.

"Yangi kalom ilmi" asari Sher'iye ve Evkaf Vekâleti Te'lifât ve Tedkikât-ı İslâmiye Heeti tashkiloti taklifi bilan Ismoil Haqqiy tarafidan yozilgan bo'lib, asarning debocha qismida qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, asar muqaddima va ikkita bo'limni qamrab olishi rejalashtirilishiga qaramay, faqat kirish qismi va ilohiyot mavzulari qalamga olingan birinchi bo'limigina nashr etilgan. Nubuvvat davrini qamrab olishi rejalashtirilgan ikkinchi bo'limi va xulosa qismi oxiriga yetkazilmagan. Shuningdek, so'zboshida asarning metodlari to'g'risida ma'lumot berilgach, Allohning borligi mavzusida yangi metodlardan foydalanish, nubuvvat bo'limida ham Payg'ambar alayhissalomning hayoti va axloqiy sifatlarining payg'ambar ekanligining dalili sifatida keltirilishi ilgari surilgan.

Yettita kichik boblarni qamrab olgan muqaddima qismida esa muallif kitobxonni asosiy kalom mavzularini o'rganishga tayyorlash uchun diniy hukmlar, Islomshunoslik fanlari ta'rifi, falsafa va tasavvufning kelib chiqishi, ilm va borliq masalalari, modda va ruh mazularini qisqacha qalamga olgan. Shu bilan bir qatorda, muqaddimada mutaaxxirlar davridagi kalom asarlaridan farqli ravishda asosiy tushunchalarga va Islomshunoslik fanlarining paydo bo'lishi va metodologik jihatdan tarixiy taraqqiyoti bosqichlariga urg'u berilib, mazkur fanlarning uslubiy farqlari ta'kidlangan. Boshqa tarafdin, aqidaviy va fiqhiy mazhablarning asosiy qarashlari haqida to'xtalar ekanmiz, Botiniylikdan boshqa hech bir mazhab haqida salbiy fikr bildirilmagan. [4]

Asarning muqaddimadan keyingi "Ilohiyot" qismida Allohning zoti, borligining dalillari, uning sifatleri kabi mavzularni qamrab oluvchi to'rtta bobdan iborat. Birinchi bobda islom olimlarining dalillari faylasuflarning turli qarashlari bilan bir qatorda sanab o'tilgan, so'ngra zamonaviy falsafaning dalillari ko'rib chiqilgan. Allohning borligiga qarshi keltirilgan dalillar tegishli falsafiy yo'nalishlar bilan birga tilga olingan va ularga raddiyalar berilgan. Xususan, "Moddiya mazhabi" va "Isbotiya mazhabi" nomli materializm va pozitivizmga ko'p urg'u beruvchi firqalarning tarixiy kelib chiqishi va asosiy qarashlari keltirilgan. Ikkinchi va uchinchi boblarda mazhablarning Allohning sifatleri haqidagi turli qarashlari, to'rtinchi bobda esa iroda, isloh, hidoyat, qadar va bir qator yomon amallarga taalluqli masalalar keltirilgan. Asar nihoyasidagi "qo'shimchalar" qismida Allohning borligining qat'iy dalil ekaniga urg'u berilib, tavhidning tafsiloti berilgan. Ko'plab G'arb olimlarining ilohiyot mavzusini metafizikaga doir aqliy dalillarga tayanib qabul qilishi aytilgan.

Turkiyada XX asr o'rtalaridan diniy fanlar o'qitila boshlagach, "Yangi kalom ilmi" asari kalom sohasida kitob yozishda namuna sifatida foydalana boshlandi. Mazkur asar haqida Sabriy Hizmetli Sorbona universitetida 1979-yil "Ismoil Haqqiy Izmirlikning "Yangi kalom ilmi" asaridagi diniy qarshlari" nomli doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Shuningdek, 1981-yil Anqarada asarning yangi turk alifbosidagi nashri tayyorlandi [14].

Ismoil Haqqiy qaerda bo'lmasin islomshunoslik fanlaridan saboq olgan va deyarli islomshunoslikning har bir sohasiga oid asarlar va maqolalar yozgan. Bu xususiyat uning ko'p qirrali islom olimi ekanligini ko'rsatmoqda. Ismoil Haqqiy Qur'on, hadis, fiqh, kalom, ilmi xilof, tasavvuf, islom tarixi, din tarixi, islom falsafasi, falsafa, mantiq va axloq kabi fanlarga doir asarlar yozgan. Lekin, asarlarining aksariyat qismi arab alifbosida yozilgan bo'lib, hali-hanuz zamonaviy turk alifbosiga o'tkazilmagan asarlari ham bor. Shuningdek, kitoblari va maqolalarining ko'pchiligi hali chop etilmagan va chop etilgan asarlarining barchasi Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida saqlanmoqda.

"Ijtimoiy kalom" tushunchasi Turkiyada ilk marotaba Mehmet Sharafiddin Yaltqaya (1880-1947) tarafidan ilgari surilgan bo'lib, u ayni shu nomda asar ham yozgan [11:129-151]. Ijtimoiy kalom tushunchasi kalomni yangilash

bo'yicha eng ilg'or loyiha yoki taklifdek tuyuladi. Yaltqayaning kalomga "Ijtimoiyot – ijtimoiy fan" nuqtai-nazaridan yondashuvi ortida sotsiolog Emil Dyurkgeymdan (1858-1917) ta'sirlangani ko'rinib turibdi [10:178]. Ziyo Ko'kalp (1876-1924) ham "Itimoiy usuli fiqh" tashabbusi bilan chiqqandi. Har ikki olim ham Dyurkgeymning "Birdamlilik qonuni" ilmiy ishi va sotsiologik tadqiqotlari ahamiyatidan ta'sirlanib shunday sa'y-harakat qilishgan [11:130-131].

Yaltkaya islomiy jurnallarga shu turkumdagi maqolalar tayyorlab, "Ijtimoiy kalom loyihasi"ni izohlashga harakat qilgan. Yaltqaya islom kalomi paydo bo'lishi va rivojlanishini tavsiflagach, mutaqqaddim mutakallimlarning qiyosga unum berishganini da'vo qilgan. Endi kalomning qiyoslardan xoli qilinib, sotsiologiya bilan uyg'unlashtirilishi zarurligini ta'kidlagan va ijtimoiy kalom doirasida imonning ijtimoiy hayotda tajalliy qilishini ta'kidlab, jamiyatning dinni anglashi borasidagi ta'siriga e'tibor qaratgan. Yaltqaya shunday da'volarning asosi Dyurkgeym va Bergsonga borib taqalishini ifodalab, yangi kalom metodini ishlab chiqishga uringan. Uning boshqa yangilik tarafdorlaridan farqi shuki, boshqalar kalomda zamonaviy falsafadan foydalansa, u kalom-falsafa munosabatlari o'rniga kalom-sotsiologiya uyg'unligini asos qilib olgani.

Yaltqaya kalom ilmiga ijtimoiy xususiyat uyg'unlashtirilsa, shu uchta samarali natijaga erishish mumkinligiga ishonch bildirilgan:

Jamiyatda diniy hayot yanada jonlanib, tarqoq faoliyat olib borish o'rniga jamoaviy harakatlanish yuzaga keladi;

Imon-e'tiqod ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgach, kalom nuqta'i nazaridan amaliy hukmlarning ahamiyati ortadi va imon bilan quvvatlangan amaliy hukmlarni bajarish osonlashadi;

Imon va amal uyg'unlashishi natijasida dinning umumiy jihatida faollashadi. Shunday qilib, musulmonlar faqat shaxsiy miqyosda hayot kechirish o'rniga umuminsoniy tamoyillar doirasida diniy ma'lumotlari jamiyatda aks etadigan turmush tarziga erishishadi. [11:147]

Yaltqayaning o'zi yashagan davrda rag'batlantirilmagan ilmiy ishlari keyinchalik Shaban Ali Duzgun tomonidan "Sotsial kalom" nomli kitobda qayta yozildi. Shundan so'ng Turkiyada itimoiy ilohiyot sohasida magistrlik va

doktorlik dissertatsiyalari va maqolalar yozilgan. Shu taxlitda texnologiya va ilmiy miqyosda erishilgan yutuqlardan foydalanib, kalomni yangilashga asoslangan va sotsiologik yondashuv o'rniga falsafiy yondashuvga tayanib, kalom sohasida yangilik qilmoqchi bo'lganlarning ham tendensiyalari uslubiy jihatdan ularnikiga o'xshash. Ikkalasining umumiy jihati zamonaviy ilmiy tajribadan foydalanishga ehtiyoj sezilganligini anglab, bu ehtiyojni qondirish taklifini berganliklaridir [12:20-135].

Xulosa qilib aytish mumkinki, kalom ilmi boshqa sohalarga qaraganda yangilik va o'zgarishlarni eng samarali shaklda assimilyatsiya qilishi bilan ajralib turadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, kalom muttasil ravishda metod o'zgarishi jarayonlariga yuz tutgani va har bir davrning turli xil murakkab sharoitlariga muvofiq keladigan tushunchalar ishlab chiqqani kundek ravshandir. Islom olami faqat oldingi davrlarda emas nafaqat so'nggi bir necha asrlarda ham rivojlanish va o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Xususan, Usmoniylar sultonligining so'nggi davrida yuzaga kelgan muvaffaqiyatsizliklar, taraqqiyotdagi turg'unlik, depressiya va inqiroz ba'zi olimlar, ziyolilar hamda mutafakkirlarni xavotirga soldi. Natijada ularning butun diqqat-e'tiborini yangilik (tajdid) va islohotlar qilish o'y-xayollari chulg'ab oldi. Shu tariqa, "Yangi kalom ilmi" nomini olgan harakat paydo bo'ldi.

Bu harakat namoyandalari o'sha davrda islom tafakkurining o'sishi natijasida musulmonlar G'arb madaniyati va sivilizatsiyasiga qarshi turuvchi o'ziga xos va ularning ma'naviy ildizlariga borib taqaladigan madaniyatga ehtiyoj sezganligini ta'kidlaganlar. Ularning kitoblari metod, maqsad va mazmun jihatidan boy, keng qamrovli bo'lib, bugungi kun islom olami qalbining jo'sh urishi, ertangi kunga umid uyg'otish, vayronkor g'oyalar xurujlariga qarshi immunitet hosil qilishdek manfaatlari bilan bir qatorda din, islom ilmlari, kalom, jamiyat va butun insoniyat uchun katta xizmat qildi. Ularning ba'zilarida kalom mavzulari falsafiy, ba'zilarida ilmiy, ba'zilarida madaniy va tarixiy, ba'zilarida siyosiy-mafkuraviy jihatdan yoritib berilishi bilan birga barchasi davrning jumboqlariga yechim topish hamda zamondosh musulmonlarning ongidagi savol, shubha va muammolarga javob topishlariga salmoqli hissa qo'shdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, kalom ilmi boshqa sohalarga qaraganda yangilik va o'zgarishlarni eng samarali shaklda assimilyatsiya qilishi bilan ajralib turadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, kalom muttasil ravishda metod o'zgarishi jarayonlariga yuz tutgani va har bir davrning turli xil murakkab sharoitlariga muvofiq keladigan tushunchalar ishlab chiqqani kundek ravshandir. Islom olami faqat oldingi davrlarda emas nafaqat so'nggi bir necha asrlarda ham rivojlanish va o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Xususan, Usmoniylar sultonligining so'nggi davrida yuzaga kelgan muvaffaqiyatsizliklar, taraqqiyotdagi turg'unlik, depressiya va inqiroz ba'zi olimlar, ziyolilar hamda mutafakkirlarni xavotirga soldi. Natijada ularning butun diqqat-e'tiborini yangilik (tajdid) va islohotlar qilish o'y-xayollari chulg'ab oldi. Shu tariqa, "Yangi kalom ilmi" nomini olgan harakat paydo bo'ldi. Bu harakatning Ali Suaviy (1839-1878), Abdullatif Harputiy (1842-1916), Sirri Giridiy (1844-1895), shayxulislom Muso Kozim afandi (1858-1920), Ko'nyolik Mehmet Vahbiy afandi (1862-1949), Umar Farid Qam (1864-1944), Arabqirlik Husayn Avniy afandi (1864-1954), Filibelik Ahmad Hilmiy (1865-1914), Izmirlik Ismoil Haqqi (1869-1946), Mehmet Aqif Ersoy (1873-1936), Mehmet Sharafiddin Yaltkaya (1880-1947), Umar Nasuhi Bilmen (1882-1971) kabi bir qator yetuk darg'alari yetishib chiqdi.

Bu namoyandalar o'sha davrda islom tafakkurining o'sishi natijasida musulmonlar G'arb madaniyati va sivilizatsiyasiga qarshi turuvchi o'ziga xos va ularning ma'naviy ildizlariga borib taqaladigan madaniyatga ehtiyoj sezganligini ta'kidlashgan. Ularning kitoblari metod, maqsad va mazmun jihatidan boy, keng qamrovli bo'lib, bugungi kun islom olami qalbining jo'sh urishi, ertangi kunga umid uyg'otish, vayronkor g'oyalar xurujlariga qarshi immunitet hosil qilishdek manfaatlari bilan bir qatorda din, islom ilmlari, kalom, jamiyat va butun insoniyat uchun katta xizmat qildi. Ularning ba'zilarida kalom mavzulari falsafiy, ba'zilarida ilmiy, ba'zilarida madaniy va tarixiy, ba'zilarida siyosiy-mafkuraviy jihatdan yoritib berilishi bilan birga barchasi davrning jumboqlariga yechim topish hamda zamondosh musulmonlarning ongidagi savol, shubha va muammolarga javob topishlariga salmoqli hissa qo'shdi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4802-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4945427>. Iqtibos olingan sana: 16.10. 2021.
2. Abdullatif Harputi. Tenkihu'l-kelam. -Istanbul: Dar as- saodat, 1914. - 63 s.
3. Filibeli Ahmed Hilmi. Allahi Inkar Mümkün Müdür?. -Istanbul: Matbaa-ı İslamiyesi, 2021. - 240 s.
4. İsmail Hakkı İzmirli. Yeni ilmi kelim. - Ankara: Ankara Okulu Yayınları, 2013. - 488 s.
5. İsmail Hakkı İzmirli. Muhassalü'l-Kelam ve'l-Hikme. - İstanbul: Evkafi İslamiyye, 1917. - 201 s.
6. Mehmet Sait Özervarli. Kelâmda yenillik arayışları. -Istanbul: Isam yayınları, 1998. - 378 s.
7. Mehmet Salih Gecit. Son dönem temsilcileri bağlamında yeni ilm-i kelam hareketi (Anadolu örneği) // Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, Ekim 2016, Cilt: 9, Sayı: 46. - S. 931-944.
8. Mümtazer Türköne. Siyasi İdeoloji Olarak İslamcılığın Doğuşu. - İstanbul: İletişim Yayınları, 1991. - 276 s.
9. Rabiye Çetin. Tanzimat'tan günümüze kelam'i yenileme çalışmaları // Dini Araştırmalar, Cilt : 16. Sayı: 42, Ocak - Haziran 2013. - S. 9-38.
10. Özcan Taşçı. "Çağdaş Kelâm Düşüncesi", Kelâm El Kitabı. - Ankara: Grafiker Yayınları, 2013. - 278 s.
11. Ramazan Altıntaş. "Sosyal Kelâma Giriş: M. Şerafettin Yaltkaya Örneği", Kelâmın İşlevselliği ve Günümüz Kelâm Problemleri". -İzmir: İzmir İlahiyat Fakültesi Yayınları, 1999. - 445 s.
12. Şaban Ali Düzgün. Sosyal Teoloji İnsanın Yeryüzü Serüveni. - İstanbul: Lotus Yayınları, 2010. - 176 s.
13. Vahdettin Başçı. "İsmail Hakkı İzmirli'de Felsefe İlim ve Mantık Anlayışı" // Atatürk Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. Sayı 11, 1993. - 524 s.
14. Türkiye İslom Ensiklopediyasidagi Ismoil Haqqi Izmirlining «Yangi kalom ilmi» asari haqidagi ma'lumot.<https://islamansiklopedisi.org.tr/yeni-ilm-i-kelam>. Iqtibos olingan sana: 17. 01. 2022.
15. Türkiye İslom Ensiklopediyasining Abdullatif Harputiy ilmiy faoliyati haqidagi ma'lumoti.<https://islamansiklopedisi.org.tr/harputi-abdullatif>. Iqtibos olingan sana: 19. 01. 2022.
16. Ahmad Hilmiy ilmiy faoliyati // <https://islamansiklopedisi.org.tr/sehbenderzade-ahmed-hilmi>. Iqtibos olingan sana: 23.01. 2022.
17. Ismoil Haqqi Izmirli // <https://g.co/kgs/NZQFwa>. Iqtibos olingan sana: 26.01. 2022.